

VILOYAT HOKIMI BIRLASHGAN ARAB AMIRLIKARINING

Viloyat hokimi Xayrullo Bozorov bugun Qo'qon shahrida bo'lib o'tayotgan xalqaro forum doirasida Birlashgan Arab amirliklarining "Emirates NBD" moliyaviy masalalari bo'yicha menejeri Sultan Ali Al Sharif bilan uchrashdi.

Muloqot davomida ushbu investorlar guruhi tomonidan viloyatimizda logistika markazini tashkil etish va boshqa sohalarda hamkorlikda loyihalarni amalga oshirish bo'yicha muzokaralar olib borildi.

Viloyat rahbari joriy yilning noyabr oyida Farg'onada BAA va viloyatimiz tadbirkorlari ishtirokida biznes-forum tashkil etilayotganini ma'lum qilib, mazkur tadbiriga taklif qildi.

"Emirates NBD" MENAT mintaqasidagi yetakchi bank guruhi bo'lib, 13 ta davlatda 20 milliondan ortiq mijozlarga xizmat ko'rsatadi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#), [Telegram](#), [Facebook](#), [YouTube](#), [Instagram](#)

2024-10-17 23:26:02